



SHIFOXONA QABULXONA BO‘LIMINING TUZILISHI VA ISHI.

Mamanazarova Roxilaxon

Farg‘ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Hamshiralik ishi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shifoxona qabulxona bo‘limining tuzilishi va ish haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so'zlar: Transportirovka, reanimatsiya, hirurgiya, aseptika, antiseptika, izolyatsiya, jarrohlik, terapiya.

THE STRUCTURE AND WORK OF THE HOSPITAL RECEPTION DEPARTMENT.

Annotation: This article discusses the structure and work of the hospital reception department.

Keywords: Transportation, resuscitation, surgery, asepsis, antiseptics, isolation, surgery, therapy.

Qabulxona shifoxonaning asosiy diagnostika-davolash bo‘limi hisoblanadi. Bu bo‘lim xizmatchilari qancha tez, aniq va malakali xizmat ko‘rsatsa, bemorni davolash va hayotini saqlab qolish shuncha yengil bo‘ladi. Qabulxonalar markazlashgan va markazlashmagan bo‘lishi mumkin.

Markazlashgan qabulxonalarda barcha diagnostika bo‘limlari va davolash bo‘limlari bitta binoda joylashadi.



Markazlashmagan qabulxona bo'limi esa alohida yoki biror-bir davolash binosida joylashadi. Ko'p hollarda qabulxonada jonlantirish bo'limi, terapevtik yoki jarrohlik bo'limlari joylashadi.

Kichik qishloq mahalliy shifoxonalarida ba'zan markazlashgan qabulxona bo'lmaydi. Har bir davolash bo'limlari mustaqil ravishda bemorlarni qabul qiladi.

Yodda tuting!

Shifoxona markazlashgan qabulxonasining asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Bemorlarni qabul qilish va qayd qilish (ro'yxatga olish).
2. Ko'rikdan o'tkazish, bemorning birlamchi tekshiruvini o'tkazish va tashxis qo'yish.
3. Bemorni sanitariya-gigiyena jihatdan yuvib-tarash, pokizalash.
4. Bemorga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish.
5. Bemorni shifoxonaning tegishli bo'limiga olib borish (transportirovka).



Markazlashgan qabulxonada shifoxona ma'lumotlar xizmati ham tashkil qilinadi.

Mazkur bo'limdan turli darajadagi bemorlar o'tadi (faqat homilador ayollar va yuqumli kasalliklari bo'lgan bemorlar bundan mustasno).

Yuqumli kasalliklar shifoxonasida va tug'ruqxonalarda qabulxona tarqoq holda bo'lib, bemorlar alohida ajratilgan maxsus xonalarda qabul qilinadi. Masalan, yuqumli kasallik bilan og'rigan bemorlar izolyator xonalarida qabul qilinadi.



Og'ir ahvolda olib kelingan, shoshilinch yordamga muhtoj bo'lgan bemorlar to'g'ridan to'g'ri jonlantirish (**reanimatsiya**) bo'limiga yotqiziladi.

Shifoxona qabulxonasi quyidagi xonalardan iborat bo'lishi kerak:

- 1) kutish zali;
- 2) navbatchi tibbiy hamshira xonasi (ro'yxatxona);
- 3) ko'rish xonasi (bitta yoki bir nechta);



- 4) muolaja xonasi;
- 5) bog'lov xonasi;
- 6) kichik operatsiya xonasi;
- 7) izolyator;
- 8) sanitariya-gigiyena jihatdan tozalash xonasi;
- 9) rentgen xonasi;
- 10) laboratoriya;
- 11) sanuzel, hojatxona;
- 12) xo'jalik bekasi xonasi.

Kutish zali o'zi yuradigan bemorlar va ularni kuzatib kelgan qarindoshlari uchun mo'ljallangan bo'lib, bu yerda yetarli darajada stul, stol, kreslo bo'lishi kerak. Qabulxona devorlarida davolash bo'limlarining ishlash tartibi, davolovchi shifokor bilan suhbatlashish vaqtlari, bemorlarga ruxsat etiladigan oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxati, kasalxona bo'limlarining ichki telefon tarmog'i xizmati haqidagi ma'lumotnoma va bemorlarni ko'rish vaqti yozib, osib qo'yilishi kerak.

Ro'yxatxonada navbatchi hamshira bemorlarni ro'yxatga olib, kerakli tibbiy hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Shifoxonada ko'rish xonasi bitta yoki bir nechta bo'lib, unda navbatchi shifokor bemorlarni birlamchi ko'rikdan o'tkazadi. Bemorning isitmasi o'lchanadi, pulsi sanaladi, A/B o'lchanadi, agar bemorni chuqurroq tekshirish kerak bo'lsa, tekshiruvning boshqa turlari ham qo'llaniladi, masalan, EKG qilinib, yurak holati, faoliyati aniqlanadi.

Qabubxonada bir nechta palata bo'lib, u yerga aniq tashxis qo'yilmagan bemorlar yotqiziladi va ular uchun alohida sanuzel (hojatxona) ajratiladi.



Bu yerda shifoxonaga yotqizilayotgan bemorlarni sanitariya-gigiyena jihatdan tozalash uchun vanna, dush, kiyinish xonalari mavjud.

Bemorlarni shifoxonaga yotqizish yo‘llari turlicha bo‘lishi mumkin.

Bemorlar quyidagi holatlarda qabulxonaga keltiriladi.

Bemorda o‘tkir yoki surunkali kasallik zo‘rayishi davrida, baxtsiz hodisalarda, shikastlanishlarda statsionar sharoitda yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatish zarur bo‘lganda, tibbiy tez yordam mashinasida quyidagi hollarda keltiriladi:

— davolash-profilaktika muassasasi shifokorlarining yo‘llanmasi bilan, bemorni uy sharoitida davolash foyda bermaganida;

— boshqa davolash muassasasidan shifoxona ma‘muriyati bilan kelishilgan holda bemorni o‘tkazish kerak bo‘lganda;

— to‘satdan bemorning ahvoli ko‘chada yomonlashganda.

Bemorni shifokor ko‘rigidan o‘tkazib, ushbu shifoxonaga bemorni yotqizish yoki boshqa davolash muassasasiga yuborish masalasi hal etilganidan so‘ng qabulxona hamshirasi kerakli hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Qabulxona hamshirasi bemorning isitmasini o‘lchaydi, ro‘yxatga olish (Sh-001/U) kitobiga qayd etadi. Bu kitobga bemorning ismi-sharifi, tug‘ilgan yili, turar joyi, qachon, kim tomonidan yuborilganligi va yo‘llanma bergan davolash-profilaktika muassasasining tashxisi, agar **“Tez tibbiy yordam”** mashinasida keltirilgan bo‘lsa, qaysi tashxis bilan keltirilganligi, qabulxonada qo‘yilgan tashxis va bemor qaysi bo‘limga yotqizilganligi haqidagi ma‘lumotlar yozib qo‘yiladi.

Bundan tashqari, hamshira shifoxonaga yotqizilgan bemor holatining tibbiy bayoni, ya‘ni kasallik tarixi (Sh-003/U) varaqasining pasport qismini to‘ldiradi. Kasallik tarixi varaqasining passport qismida bemor haqidagi



ma'lumotlar huddi ro'yxatga olish kitobiga yozgandek qilib to'ldiriladi, bemor uy yoki ish joyining telefoni, agar telefoni bo'lmasa, yaqin qarindoshlariniki yozib qo'yiladi. So'ngra hamshira statsionardan chiqqan bemorning statistik varaqasini—Sh-066/U—qabulxonada yuritiladigan hujjatlarning biri — pasport qismini va chap tomonini to'ldiradi. Hamshira bemorning kasallik tarixini to'ldirib, ichiga yo'llanmasini, kasalxonadan chiqqan bemorning statistik kartasini yopishtirib, shifokorga beradi. Agar bemor shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj bo'lsa, qabulxona hamshirasi birinchi tibbiy yordam ko'rsatishi shart va tezda shifokorni chaqirib, uning ko'rsatmalarini bajaradi. Agar bemor ro'yxatga olish uchun o'zi to'g'risidagi ma'lumotni to'liq bera olmasa, unda bemorni kuzatib kelgan shaxs yoki tibbiy tez yordam xizmati xodimi bemor to'g'risida ma'lumot beradi. Bemor to'g'risidagi ma'lumotni uning ahvoli yengillashgandan keyin to'ldirib, qo'shimcha qilib qo'yish mumkin.

Agar bemorning hujjatlari, qimmatbaho buyumlari bo'lsa, uni ro'yxat qilib, keyin qabul qilib olinadi va "Tez tibbiy yordam" mashinasida keltirilgan bo'lsa, kuzatuv varag'iga yozib qo'yiladi.

Qabulxonaga behush bemor keltirilsa, hamshira kerakli yordamni ko'rsatib, hujjat to'ldirib, voqea sodir bo'lgan joydagi militsiya tayanch punktiga bemor to'g'risidagi ma'lumotni beradi (bemorning jinsi, taxminiy yoshi, gavda tuzilishi, qanday kiyimda keltirilganligi). Bemorning shaxsi aniqlanguncha, barcha hujjatlar "noma'lum shaxs" deb rasmiylashtiriladi. "Tele-Tonogrammalar" jurnaliga xabar berilganligi haqidagi ma'lumotlardan tashqari, kim va qachon qabul qilganligi yozib qo'yiladi.

Agar bemor bevosita jonlantirish bo'limiga yotqizilgan bo'lsa, shu bo'limning hamshirasi bemorning barcha hujjatlarini to'ldiradi va qabulxonada ro'yxatidan o'tkazadi, ya'ni bemorlarni qayd etish jurnaliga (Sh-001/U) yozib qo'yadi.



Agar qabulxonaga keltirilgan bemorni shifokor ko‘rib, kasalxonaga yotqizishga loyiq topmasa, uni uyiga qaytarib, Sh-001/U ga yozib qo‘yiladi.

Bemorga qabulxonada ko‘rsatilgan ambulatoriya yordami haqida hamshira ambulator bemorlarni qabul etish jurnali (Sh-074/U)ga yozib qo‘yadi. Bemorni qabul qilish vaqtida qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazish, ya’ni instrumental yoki laboratoriya tekshiruvi zaruriyati tug‘ilsa, tor (ma’lum yo‘nalish bo‘yicha) mutaxassislar maslahati kerak bo‘lsa, qabulxona hamshirasi tomonidan bemorni laboratoriya tekshiruidan o‘tkazadi yoki mutaxassislarni taklif qiladi.

Shifokor bemorni ko‘rikdan o‘tkazib bo‘lgach, ko‘rik natijalarini, ko‘rsatmalarni, sanitariya tozalov turini, bo‘limga tashish turini va u qaysi bo‘limga yotqizilishi kerakligini kasallik tarixiga yozib qo‘yadi.

Davolash muassasasiga qabul qilingan bemorni tekshirayotganda hamshiralalar bir bemorda yotoq yara paydo bo‘lishi xavfini aniqlay olishi kerak. Avvalo, yotoq yara uzoq vaqt yotadigan, o‘tiradigan, harakat qila olmaydigan bemorlar tanasida paydo bo‘ladi. Yotoq yara paydo bo‘lishi xavfining ortishiga sabab bo‘ladigan omillar juda ko‘p.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K'O Zokirova "Hamshiralik ishi asoslari"
2. Meditsina xamshiralari o'quv qo'llanmasi Ramazanova R. A. Taxriri ostida, Toshkent "O'qituvchi", 1985.
3. Grajdani mudofaasi P. G. Kubovskiyning umumiy taxriri ostida. Toshkent "O'qituvchi", 1992.
4. O'qituvchilarning meditsina-sanitariya tayyorgarligi. V. N. Zavyanov, M.I. Gogolev, V.S. Mordvinov, B.A. Gayko, V.A. Shkuratov, V.I. Ushakova, Toshkent "O'qituvchi", 1991.